



Sayyora To'ychiyeva

Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent, O'zbekiston

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDAGI TILSHUNOSLIK VA TOPONIMIKAGA OID MA'LUMOTLAR

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida uchraydigan tilshunoslik va toponimik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Boburning turkiy tilga munosabati, "Boburnoma" asaridagi uslubiy soddalik, etimologik izohlar, semantik hodisalar hamda fonetik o'zgarishlar misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, asarda keltirilgan joy nomlarining tarixiy va geografik ahamiyati ko'rsatib beriladi. Axi, Andijon, Namangan, Koson, Bandisolor kabi toponimlar yuzasidan mulohazalar bayon etiladi. Tadqiqot Bobur merosining tilshunoslik va tarixiy manba sifatidagi qiymatini ochib beradi.

Jahon tarixida turkiy madaniyati va ma'rifatining yirik vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) ijodi ko'plab tadqiqotchilarni hayratga solib kelmoqda. U arab va fors tillarini mukammal bilishi bilan birga turkiy tillarni ham mukammal bilgan. Boburning "Boburnoma" asari aynan turkiy tilda yozilgan bebaho asar hisoblanadi. Chunki, u voyaga yetgan Andijonda barcha aholi turkiy tilda gaplashishini "Boburnoma" asarida keltirib o'tgan: "Andijon aholisi turk, shahri bilan bozorida turkcha bilmaydigan odam yo'q. Xalqning tili yozuvi tiliga uyg'un keladi". XV–XVI asrlarda turkiy tilning o'ziga xos nazariy va amaliy masalalarini aynan shu asarda ko'rish mumkin. Ayniqsa, turkiy tilning stilistikasi, ya'ni uslubiyoti, etimologiyasi, semantikasi, fonetik ta'sir, lingvistikasi kabi masalalar yuzasidan ko'pgina ma'lumotlar berilgan.

Bobur hayotining katta qismi jang-u jadallar, davlat ishlari, xalq tashvishlari bilan bog'liq holda kechgan bo'lishiga qaramay, badiiy adabiyot, ilmiy sohalarida ham misli ko'rilmagan yutuqlarga erishgan. U butun ijodiy faoliyatini turkiy adabiyot va uning ravnaqi, o'z ona tilisining rivojiga bag'ishladi, tarixnavislik, badiiy adabiyot, adabiyotshunoslik, dinshunoslik, musiqa ilmi, harb ishi sohalarida ajoyib va tengi yo'q asarlar yozdi.

Sayyora Toychiyeva

Doctor of Sciences in Philosophy, Professor
Tashkent, Uzbekistan

LINGUISTIC AND TOPONYMIC INFORMATION IN THE WORKS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

ABSTRACT

This article analyzes the linguistic and toponymic information found in the works of Zahiriddin Muhammad Babur. Babur's attitude toward the Turkic language, the stylistic simplicity of the Baburnama, etymological explanations, semantic phenomena, and phonetic changes are discussed on the basis of examples. In addition, the historical and geographical significance of the place names mentioned in the work is demonstrated. Observations are presented on such toponyms as Akhsi, Andijan, Namangan, Koson, and Bandisolor. The study reveals the value of Babur's heritage as both a linguistic source and a historical document.

Turkiy til uslubiyoti “Boburnoma”da yaqqol ko‘rinadi. Asarning sodda, ravon, tushunarli morfologik uslubi Boburning so‘zni to‘g‘ri tanlashi va bu so‘zlarni muvofiq holda ishlata olishi, uning mahorati bilan bevosita bog‘liqdir. Jumladan, Boburning o‘z o‘g‘li Humoyun Mirzoga yozgan maktubida ko‘rinadi: “Xatingni qiynalib o‘qisa bo‘ladi, lekin u juda chalkash. Nasrda hali hech kim muammo ko‘rgan emas. Garchi uncha to‘g‘ri bo‘lmasa ham, imloying yomonmas. “Iltifot”ni “to” bilan “qulanj”ni “yo” bilan bitibsan. Xatingni bir amallab o‘qisa bo‘ladi, lekin tushunarsiz so‘zlarni qo‘llaganingdan maqsadingni to‘la tushunib bo‘lmaydi. Ehtimol, xat yozishga sustliging shundandir. Jimjimador so‘zlarni bitmoqchi bo‘lasan, shu bois tushunarsiz chiqadi. Bundan keyin takalluf qilma, ravshan va aniq so‘zlar bilan yoz. Senga ham, o‘quvchiga ham tashvish kamroq bo‘ladi”. Mana shu nasihatiga Boburning o‘zi ham amal qilib, she‘rlarini ham oddiy so‘zlar bilan bitgan:

*Yana bir ko‘z g‘amidin xasta ko‘rarmen o‘zni,
Yana bir zulfg‘a vobasta ko‘rarmen o‘zni.
Labining xasratida zor toparmen jonni,
Ko‘zining furqatida xasta ko‘rarmen o‘zni.*

Shu tufayli Boburning barcha asarlarida izofalar kam ishlatilsa-da, sodda va ravon uslubi bevosita Alisher Navoiy she‘rlari uslubiga yaqin hisoblanadi.

Etimologik jihatdan, Bobur asarlarida quyidagi farqli xususiyatlar mavjud:

1. Yer-suv nomlarining etimologiyasi.
2. Hayvonlar nomi etimologiyasi.

Yer-suv etimologiyasi “Boburnoma”da ko‘plab uchraydi. Bobur bu asarida o‘zi yashab o‘tgan mintaqa haqida o‘zidan keyingi avlodga zarur qo‘llanma sifatida qoldirishga harakat qilgan. Asarda yer-suv nomlarini yozish bilan birga uning tarixi, etimologiyasi, geografik va tabiiy sharoitiga ham alohida to‘xtalgan. Masalan, “Savalak Parbat” tog‘i hind tilida “ava” – chorak, “lak” – yuz ming, “parbat” – tog‘, ya‘ni “chorak va yuz ming tog‘” – bir yuz yigirma besh ming tog‘ kelib chiqadi. Shaharcha nomlaridan “bunga tobe mavzelardan biri Kandibodomdir. Shahar deb bo‘lmaydi-yu, ammo yaxshigina shaharchadir. Bodomi yaxshi bo‘ladi. Bu jihatdan shu ism bilan nomlangan”. Dashtlardan biri “Ho‘jand va Kandibodom orasida Hodarvesh nomli bir dasht bor. Bu dashtda hamisha shamol esadi. Bundan sharq tomonda bo‘lgan Marg‘inonga ham shu yerning shamoli boradi. Xo‘jand buning g‘arbida bo‘lib, mudom bu yerdan u yerga shamol esadi; qattiq shamollari bor. Derlarki, bir necha darvesh bu dashtda qattiq shamolga yo‘liqib, bir-birlarini topolmay, “Ho, darvesh!”, “Ho, darvesh!” deya-deya halok bo‘lganlar. O‘shadan beri bu dashtni Hodarvesh deydilar”. Shuningdek, “Boburnoma”da Shahrizabz, Qarshi, Kashmir, Konigil, Masjidi Muqaddas, Chinnixona, Masjidi Laqalaqa, Ko‘hijud, Semizkend, Hatipul, Komni Chochiy, Tul, Ko‘hisafed, G‘urband, G‘azna, Go‘sfandiyor, Shohi Qobul va boshqa joy nomlarining etimlogiyasiga oid bir necha muhim ma‘lumotlar berilgan.

Hayvon nomlari bilan bog‘liq *nilagov, kutahpoy, kalahra, murg‘ichangal, galabaliq* kabi so‘zlarning ma‘nosi bo‘yicha muhim ma‘lumotlar ham “Boburnoma”da keltirilgan.

Bobur o‘z asarlarining badiiyligini oshirish, ba’zi nozik tushunchalarni ifodalash maqsadida juft so‘zlar semantikasidan ham unumli foydalangan. Masalan, “Boburnoma”da “yigit yalang”, “bosh yalang” kabi juft so‘zlarni qo‘llashi bunga misol bo‘ladi. Asarda qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni juftlash bilan anglashilayotgan ma’no umumlashtiriladi. Masalan, yaxshi-yomon, ulug‘-kichik, to‘rt-besh va boshq. Boburning she’rlaridagi shakllarga ham yangi orginal unsurlar olib kirgan. “Bobur g‘azallari mumtoz turkiyzabon she’riyatining estetik me’yorlarini buzmaganda holda voqelikni imkon qadar aniq aks ettiradi”. Semantika, o‘z navbatida, so‘zning manbasi, asosi, ma’nosini o‘zgarishi va ko‘chishi, ko‘p ma’noli, ma’nodosh, shakldosh, qarama-qarshi bo‘lishi va boshqalarni tadqiq qiladi. Boburning asarlarida bir so‘z ko‘p ma’noni bildirishi ko‘rsatadi:

1. “Boburnoma”da “qo‘rg‘onni berkitmoqlikka bosh kerak; ikki qo‘l kerak; ikki oyoq kerak; bosh sardor bo‘ladi. Ikki qo‘l – ikki tomondan keladigan ko‘mak va madad bo‘ladi. Ikki oyoq – qo‘rg‘onning zahirasi bilan suvi bo‘ladi. Biz bu atrof va tevarakdagilardan ko‘mak va madadga ko‘z tutamiz, ularning har qaysisi o‘z dardi bilan ovora”.

2. “O‘zbeklar zo‘r kishisini bo‘ka der emish. Shunda Jonibek: “Bo‘kamusen? Bo‘ka bo‘lsang, kel, kurashaylik”, degan ekan”.

3. “Turkiy tilda bo‘ydoqni ham bo‘y deydilar, ammo bunda u bo‘y tushunilmaydi, balki yaqin degan ma’nosini beradi. Buning o‘ng va chap o‘ng va so‘l deb ataladi”.

Fonetik ta’sir. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida ma’lumot berishilicha, turkiy tilda “ho”lashish hodisa hind tili ta’sirida deb ma’lumot beradi. Bu hodisa “Boburnoma”da ham uchraydi: “Ularning bir mo‘tabar ulug‘ kishisini “Roy” deb ulug‘laydilar, uning uka va farzandlarini malik deydilar. Bu janjuhalar Langarxonga tog‘a bo‘ladilar. Suhon suvi atrofidagi el-ulus hokimining ismi Malik Hast edi. Uning asli oti Asaddir. Hindistonliklarning so‘zlaridagi harakatlarni (qisqa unilarni) gohida tashlab o‘qiydilar, jumladan, “xabar”ni “xabr”, “asad”ni “asd” deb aytadilar va bu bora-bora “hast”ga aylangan”. Bobur keltirgan “asad” so‘zi “ho”lashish oqibatida hindiydashib, “hast”ga aylanib boradi.

Atoqli vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning turli fan sohalariga oid ma’lumotlarni beruvchi o‘ziga xos qomusiy asari “Boburnoma” o‘lkamiz tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, toponimikasini o‘rganish uchun asos bo‘la oladigan muhim manbalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysining geografiyasi va toponimikasi masalasi boshqa asarlarda uchramaydigan o‘ziga xos uslubda tasvirlangan. Asarni o‘qish jarayonida ko‘z o‘ngimizda bundan 500-600 yil muqaddam ro‘y bergan tarixiy voqealar bilan birga yurtimizdagi makon va manzillarning o‘ziga xos nomlanishi, joylashish o‘rni ham namoyon bo‘ladi.

Ba’zi o‘rinlarda Bobur davridagi aholi manzilgohlari, qishloq va qal’alarning nomlari asl holida bugungi kunga qadar yetib kelganligining guvohi bo‘lamiz. Ayrim holatlarda esa, muallif ko‘rsatib o‘tgan manzil va makonlar bugun boshqacha tarzda nomlanayotganligini, fonetik o‘zgarishlarga uchraganligini yoki butunlay boshqacha atalayotganligining shohidi bo‘lamiz.

Joy nomlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish o‘tmishni yoritishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Yetarli toponimik bilimga ega bo'lmagan bildirilgan fikr, yaratilgan asarlar esa, keyinchalik tarix fani sohasida chalkashliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Akademik D.S. Lixachyov o'z vaqtida ta'kidlagan edi: "Toponimiyaning tarixiy-madaniy merosiyiligini qayta tiklar ekanmiz, biz bu bilan xalqimizning madaniy qadriyatlarini qaytaramiz, bugundan o'tmishga va o'tmishdan bugun orqali kelajakka aloqa rishtalarini o'tkazamiz. Tarixiy nomlarni qaytarish va himoya qilish – oliyjanob ijtimoiy va madaniy vazifa".

Toponimikada shunday bir tushuncha ham borki, joy nomlari xususida fikr bildirganda, avvalo, so'zlarning etimologiyasiga e'tibor qaratish lozim. Aholi o'zi yashab turgan joyga nom qo'yishda birinchi galda o'z ona tilida ishlatiladigan so'zlardan foydalanadi. Aholi manzillari, daryo va ko'llar o'rnini aniqlashda gidronim va oykonimlarning ahamiyati kattadir. Toponimika tarixni haqqoniy tadqiq etishdagi muhim fan tarmog'i hisoblanadi. Ba'zi toponimlar, xususan, suv havzalarini, geografik hududlarning nomlanishi shu hudud etnografiyasi to'g'risida haqqoniy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Shu o'rinda Boburning o'z asarlarida keltirib o'tgan ayrim toponimik va geografik ma'lumotlarga to'xtalib o'tamiz. Masalan, Toshkentdan Axbi va Andijon sari, Kosondan Axbiga kelish chizmasi, Axbidan Xo'jandga tomon yurgan yo'llari chizmasi, u yerlardagi manzillarning nomlanishi masalasi ham g'oyat ahamiyatlidir.

"Boburnoma"da tilga olingan Namangan hududidagi Namangan, Koson, G'ova, Karnon, Navkent, Pop aholi manzillari bugun ham shu nom bilan ataladi. Biroq Kandirlik dovoni, Arxiyon qo'rg'oni, Bandisolor yo'li bugun qanday nom bilan ataladi? Ular asli qayerda joylashgan edi? degan savollarga javob berish toponimika fani oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Asarda Bandisolor nomi ikki bor tilga olinadi. Birinchi martasida to'qqiz yuzinchi (1494-1495) yil voqealarini bayon etish asnosida eslatib o'tiladi. Umarshayx Mirzo vafotidan keyin Farg'onadagi tahlikali vaziyatlarda barcha bek va amirlar, aholi Bobur atrofida mustahkam jipslashib, tashqi dushmanlar Sulton Ahmad Mirzo, Abobakr dug'lat Koshg'ariy, Sulton Mahmudxonlarning xavflarini bartaraf etdilar.

Boburning bundan keyingi faoliyati asosan otasi hukmronligining so'nggi paytlarida qo'ldan ketgan yerlarni qaytarib olishga qaratildi. Qaltis vaziyatdan foydalanib, xiyonat tufayli boshqa hukmdorlarga itoatkorlik qilib, mamlakat yaxlitligiga putur yetkazayotgan qal'a hokimlarini bo'ysundirish ham galdagi vazifalardan edi. Samarqand hokimi Boburning amakisi Sulton Ahmad mirzo 1494-yil vafot etgach, o'rniga ukasi Sulton Mahmud Mirzo taxtga o'tirdi. Biroq u ham oradan bir yil keyin dunyodan ko'z yumadi. Samarqand taxtiga Buxoro hokimi bo'lib turgan Sulton Mahmud mirzoning o'g'li 18 yoshli Boysung'ur Mirzo o'tirdi. Shu paytda Toshkentdan Boburning tog'asi Sulton Mahmudxon katta qo'shin bilan Samarqand sari yurish qildi. "Boburnoma"da yozilishicha, Kanboy navohisida ikki o'rtada urush bo'lgan. Sulton Mahmudxon yengilib, ko'plab mo'g'ul qo'shini qirilgan. Shu onlarda Isfarada Umarshayx Mirzoning beklaridan Ibrohim Soru xiyonat yo'lga o'tib, Boysung'ur Mirzoning nomini xutbaga qo'shib o'qitib,

muxolifat yo‘liga o‘tdi. Bobur Mirzo 900 yil sha‘bon oyining oxirlarida (1495-yil 23–25-may) Isfaraga Ibrohim Soruning isyonini bostirish uchun yurish qiladi va 40 kunlik qamaldan so‘ng shavvol oyida Isfara qo‘rg‘oni taslim etildi (1495-yil iyul oyi boshlari). Bu paytda Sulton Mahmudxon Shohruhiya qal‘asida edi. Isfara egallangan, Bobur Mirzo eski gina-kuduratlarni unutish, aloqalarni yaxshilash uchun tog‘asining ziyoratiga bordi. “Boburnoma”da “...Bir-ikki kundan so‘ng Kandirlik doboni bila Axi va Andijon sari azimat qildim. Axsig‘a yetib otamning mazorini tavof qildim, Axsidin namozi jum‘a vaqtida chiqib, Bandisolor yo‘li bila namozi shom bila namozi xuftan orasida Andijong‘a keldim. Bu yo‘lkim, Bandisolor yo‘li bo‘lg‘ay, to‘qqiz yig‘och yo‘ldur...”, deydi Bobur. Isfaraning taslim bo‘lishi 1495-yilning 7–10-iyul kunlariga to‘g‘ri keladi. Boburning Shohruhiyada 1-2 kun tog‘asi huzurida bo‘lganidan keyin Axsiga qarab yo‘lga chiqqanligini inobatga olsak, 10–12-iyul kunlari u Kandirlik dovonidan o‘tish uchun yo‘lga tushgan. Demak, Bobur Mirzo shavvol oyining birinchi o‘n kunligida, taxminan 15-16-iyul kunlari Axsiga yetib kelgan.

Shu kuni u Axsidan juma namozi vaqtida (soat 13:00da – T.Q.) yo‘lga chiqib, Bandi Solor yo‘li orqali Andijonga jo‘naydi. U holda Bobur Mirzo shom va xufton namozi oralig‘ida Andijonga yetib kelgan bo‘lsa, yo‘lda qancha soat vaqt sarflagan bo‘ladi? Juma vaqti 12:30 bo‘lsa, shom va xufton namozlari oralig‘i 21:00ga to‘g‘ri keladi. Demak, Bobur Mirzo yo‘lda 8 soat-u 30 daqiqa yurgan bo‘ladi. Albatta, bu o‘rinda ibodat vaqtlari 10 daqiqa atrofida farq qilishini ham unutmaslik kerak. Unda savol tug‘iladi, Kandirlik dovonni qayerda-yu Bandisolor yo‘li qaysi yo‘l?

Kandirlik dovonni deganda aksariyat kishilar yanglishib, bugungi Toshkent–O‘sh avtomobil yo‘lining Qamchiq dovonini tushunishadi. Asli unday emas. Qadimda Andijon, Namangan, Axi, Popdan chiqqan yo‘lovchilar hozirgi Qamchiq dovonining shimolrog‘ida unga parallel ravishda tushgan Kandirlik dovonni orqali Toshkentga borishgan. Bu yo‘l qisman bo‘lsa-da masofani yaqinlashtirgan. Hozir ham Chust tumanining Karnon, G‘ova qishloqlari orqali Kandirlik dovoniga chiqiladi. Chodak qishlog‘ining eng shimoliy nuqtasi Duob mahallasiga chiqib borilganda, yo‘l ikkiga ajraladi: biri o‘ng tomon G‘ovaga, ikkinchisi Toshkentga olib boradi. So‘ngra, bu yo‘l Toshkent viloyati hududiga o‘tgach, Qamchiq dovonni yo‘li bilan kesishadi.

“Boburnoma”da ikki joyda Bandisolor yo‘li haqida fikr bildirilgan. Ya‘ni, bu yo‘l Axi bilan Andijon oralig‘ida joylashganligi hamda masofasining to‘qqiz yig‘och ekanligi ta‘kidlangan.

Demak, Bandisolor yo‘li Axi va Andijon oralig‘ida joylashgan. Bu yo‘l Axsidan Sirdaryo ko‘prigidan o‘tib, hozirda Andijon viloyatining Baliqchi, Chinobod, Oltinko‘l yo‘li orqali Andijonga borgan. Bandisolor yo‘li Sirdaryoning chap qirg‘og‘i bo‘ylab joylashgan. Yuqoridagi aytganimizdek, toponimikada nomlanishni, avvalo, mahalliy tildagi so‘zlardan izlash lozim. Bandisolor so‘zi aynan o‘zbek tilidan olingan bo‘lib, daryo, anhor, soylardan band solish yo‘li bilan suv chiqarish degan ma‘nolarni anglatadi. Band so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da jumladan shunday ta‘rif berilgan: “Band – to‘siq, g‘ov, to‘g‘on, band solmoq”. Endi mazkur yo‘lning geografik tuzilishiga e‘tibor qaratsak, masala yanada oydinlashadi. Birinchidan, Sirdaryo sharqdan g‘arbga qarab oqadi. Daryoning shimol

tarafi yuqorilab boradi, janubiy tarafi esa nishabroq holatni aks ettiradi. Bunday holatda chap qirg‘oqdagi ekin yerlarini sug‘orish uchun Sirdaryoga bandlar solish yo‘li bilan suv chiqarish qulayroq bo‘ladi. Ikkinchidan, Axsidan Andijonga borish uchun, Andijondan Axsiga kelish uchun ham chap qirg‘oq masofa jihatidan yaqin turadi. Shu bois Bobur Toshkentdan kelayotganida Axsiga kirib otasining mozorini tavof qilganligini, Axsidin juma namozi vaqtida chiqib, Bandi Solor yo‘li orqali Andijonga shom va xufton namozlari orqali yetib kelganligini, bu yo‘l to‘qqiz yig‘ochlik masofa ekanligini yozgan¹.

Bobur 1502-1503-yillar voqealarini yoritir ekan, Axsida ko‘prik borligini, kechasiga unga qo‘riqchi qo‘yilmaganligi tufayli, Ahmad Tanbal ko‘prikdan o‘tib Axsiga kirib kelganligini yozgan edi: “...Bir sabohi Marg‘inondin Jahongir Mirzo Tanbaldin ayrilib qochib keldi. Men hammomda edimkim, Mirzo keldi, ko‘rushtum. ...Ko‘prukka kishi qo‘ymoq kerak edi, ko‘prukka ham kishi qo‘ymaduk. Betajribalikdin mundoq o‘ sallari bo‘ldi. Tong boshida Tanbal yetti. Uch ming yarog‘liq kishi bila kelib ko‘prukdin o‘tub arkka kirdi. Mening aslda kishim ozroq edi. Axsig‘a kirgach, yana ba‘zini qo‘rg‘onlarga va ba‘zini dorug‘aliq va taxsilg‘a har taraf-har taraf yiborilib edi. Mening bila Axsida yuzdin ko‘prak kishi bo‘lg‘ay edi”.

Demak, Ahmad Tanbal Axsiga Marg‘ilondan kelgan va ko‘prikdan o‘tib Axsiga kirgan. Bu ham faqat Bandisolor yo‘li orqaligina bo‘lishi mumkin. Marg‘ilondan Axsiga keladigan eng yaqin va qulay yo‘l ham faqatgina Bandisolor yo‘li bo‘ladi. Axsiga Marg‘ilondan faqat hozirgi Marg‘ilon – Namangan yo‘li orqali kelib, Sirdaryoga yaqin Ulug‘nor tumanidagi Mingbuloq qishlog‘idagina burilib kirib kelish mumkin.

“Boburnoma”da 1499-1500-yillar voqealari yoritilar ekan, yana bir karra Bandisolor yo‘li masalasiga to‘xtanilgan. Shu davrda Ahmad Tanbal Toshkent xoni Sulton Mahmudxondan madad so‘rab kishilar yuborgan edi. Xon o‘g‘li Sulton Muhammad Xonikani (Sultonim nomi bilan mashhur bo‘lgan – T.Q.) bek atkasi Ahmadbek bilan birgalikda 5-6 ming kishilik qo‘shin bilan Kosonni qamal qilish uchun Ahmad Tanbalga yordamga yubordi. Ular Kosonni qamal qilganligining xabari kelgan paytda, Bobur Andijonda edi.

“...Andijondin Bandisolor yo‘li bila Sultonim bila Ahmadbekning ustiga otlanduk. Kechasi hech yerda turmay, tun qotib sabohi Axsiga tushtuk...”. Shundan keyingi voqealar rivojida Bobur Koson himoyasi uchun zudlik bilan otlanib, yo‘lga tushganligini, Navkandga yetib kelgach, bu yerda Tanbal haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lganligini yozgan.

Lekin Tanbal bu fursatda Arxiyon qal‘asiga kirib joylashadi. “...Tonglag‘acha fursatni g‘animat tutub, kechasiga hech yerda tushmay borib, Arxiyon qo‘rg‘onig‘a kirdilar. Ertasiga g‘animning ustiga yurub, topmay, so‘ngicha kelib, Arxiyon qo‘rg‘onini yovuq qabamoqning salohin topmay, bir shar‘isida G‘aznai Namangonga tushuldi. O‘ttuz-qirq kun biz bu yurtta eduk. Tanbal Arxiyon qo‘rg‘onida edi...”.

Navkant hozirgi Kosonsoy va Yangiqo‘rg‘on shaharlari oralig‘idagi qishloq bo‘lib, bugun Navkent, deb ataladi.

1 Yig‘och – uzunlik o‘lchovi 5985 m, ba‘zi joylarda 8-9 kmga teng.

Undan keyin keladigan Arxiyon qal'asi esa, ko'plab tarixiy adabiyotlarda, masalan, XX asrning 70–80-yillaridagi ilmiy adabiyotlarda Bobur o'z asarida to'xtalib o'tgan Arxiyon qal'asini hozirgi To'raqo'rg'on tumani markazidagi G'oyibnazar eshon madrasasi o'rnida bo'lgan, deb yangilish – xato berilgan. Lekin, birlamchi manba hisoblanmish Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida Arxiyon qal'asi Axsidan besh yig'och masofadagi yo'l ekanligi yozilgan.

Shu bilan birga, Axsikentning geografik o'rni, “Boburnoma”da nomlari zikr etilgan manzillar bilan Axi oralig'idagi masofalar o'lchovi masalalariga ham yangicha yondashuv zarurati tug'ilmoqda.

O'rta asrlarda yig'och – uzunlik o'lchovi 5985 metrga, ba'zi joylarda esa 8-9 kmga teng bo'lgan. Agar bir yig'ochni o'rtacha 8,5 kmga teng deb olinganda, Axsidan Arxiyongacha bo'lgan masofa 42-45 kmni, ya'ni, 5 yig'ochni tashkil etadi. Axsidan To'raqo'rg'ongacha bo'lgan masofa esa, ikki yig'och (16-17 km) yo'lni tashkil etadi xolos.

Shuningdek, Navkant, Arxiyon, Namangan bir-biriga yaqin masofalar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Agar Arxiyon To'raqo'rg'on hududida bo'lgan, deb hisoblansa, u holda bu fikr “Boburnoma”dagi masofalar hisobiga mutlaqo mos tushmasligi ravshan bo'lib qoladi.

Shu o'rinda Bobur “G'aznai Namangonga tushuldi”, deb yozmoqda. Tabiiyki, To'raqo'rg'on Namangandan quyiroqda joylashgan. Bu holatda “tushuldi” iborasi faqat yuqoridagi maskanga nisbatan ishlatiladi. Ya'ni, Navkent va Arxiyon Namangandan shimolda-yuqorida joylashgan bo'ladi.

Hali oydinlik kiritilishi lozim bo'lgan anchagina toponimlar mavjud. Bular sirasiga Axi so'zining kelib chiqishi, Gumbazi Chaman, Chakrak qavmi, Archakent va boshqa masalalarni kiritish mumkin.

Xullas, Zahiriddin Muhammad Boburning asarlarida tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalar uyg'un holda keladi. Bu esa Boburning turkiy tilshunoslik borasidagi mukammal nazariy masalalarga ega ekanligi hamda o'z asarlarida buning amaliy qismini ham o'z o'rnida qo'llay olishiga mahoratli ekanligi bilan ajralib turadi. “Boburnoma”da aks etgan joy nomlari, geografik tushunchalar alohida maxsus tadqiqotni talab etadi.